CHINGIZ AYTMATOVNING OBRAZ YARATISH MAHORATI

Axmedova Marjona Nurulla qizi,
O‘zbekiston Milliy universiteti Jurnalistika va o‘zbek filologiyasi fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” asari tahlil qilinadi. Asarda inson xotirasi, milliy qadriyatlar, zamonaviy jamiyat muammolari hamda ilm-fan taraqqiyoti bilan bog‘liq masalalar yoritilgan. Muallif tomonidan ilgari surilgan “manqurtlik” g‘oyasi orqali o‘zlikni yo‘qotish, tarixni o‘tmishni va jamiki xotiralarni unutishning salbiy oqibatlari ochib beriladi. Maqolada asarning mazmuni, asosiy g‘oyalari va obrazlar tizimi tahlil qilinadi, hamda uning bugungi kundagi ahamiyatlari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar*: Chingiz Aytmatov, “Asrga tatigulik kun”, manqurtlik, inson xotirasi, milliy qadruyatlar, falsafiy roman,o‘zlikni yo‘qotish,ma’naviyat, Edigey obrazi, Nayman ona.*

Аннотация.*В данной статье анализируется произведение Чингиза Айтматова «И дольше века длится день». В произведении освещаются вопросы, связанные с человеческой памятью, национальными ценностями, проблемами современного общества, а также развитием науки. Через выдвинутую автором идею «манкуртизма» раскрываются негативные последствия утраты собственной идентичности, забвения истории, прошлого и коллективной памяти. В статье рассматриваются содержание произведения, его основные идеи и система образов, а также освещается его значение в современности.*

Ключевые слова:*Чингиз Айтматов, «И дольше века длится день», манкуртизм, человеческая память, национальные ценности, философский роман, утрата идентичности, духовность, образ Эдигея, Найман-мать.*

Annotation.*This article analyzes the work “The Day Lasts More Than a Hundred Years” by Chingiz Aytmatov. The work highlights issues related to human memory, national values, problems of modern society, and the development of science. Through the concept of “mankurtism” proposed by the author, the negative consequences of losing one’s identity, forgetting history, the past, and collective memory are revealed. The article examines the content, main ideas, and system of characters in the work, as well as its relevance in the present day.*

Keywords*:Chingiz Aytmatov, “The Day Lasts More Than a Hundred Years”, mankurtism, human memory, national values, philosophical novel, loss of identity, spirituality, Edigey character, Nayman Mother.*

Kirish.XX asr jahon adabiyotining yirik namoyondalaridan biri bo‘lgan Chingiz Aytmatov o‘z asarlarida insoniyat taqdiri, milliy qadriyatlar va zamonaviy muammolarni chuqur badiiy talqin etgan. Uning‘'Asrga tatigulik kun" romani inson xotirasi, o‘zlikni anglash va tarixiy ildizlarga sodiqlik kabi dolzarb masalalarni yorituvchi muhim asarlardan biridir. Ushbu maqolada mazkur asarning mazmyni, g‘oyaviy yo‘nalishi hamda obrazlar tizimi tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Chingiz Aytmatovning‘'Asrga tatigulik kun" romani murakkab kompozitsiyaga ega bo‘lib, unda bir vaqtning o‘zida bir nechta voqea yo‘nalishlari yoritiladi.[1] Asarning markazida temiryo‘l ishchisi Edigeyning hayoti turadi. U yaqin do‘sti Kazangapni dafn qilish uchun yo‘lga chiqadi va shu jarayonda o‘tgan hayotini eslaydi.[1] Roman kompozitsiyasi retrospektiv usulda qurilgan, ya'ni hozirgi voqealar o‘tmish xotiralari bilan uyg‘un holda tasvirlanadi. [5]Shu jumladan asar o‘quvchisi faqat voqealarni kuzatishga emas, balki chuqur mushohada qilishga undaydi. Bundan tashqari, asarda kosmik syujet ham mavjud bo‘lib, unda insoniyatning boshqa sayyoralardagi hayot bilan aloqasi masalasi ko‘tariladi.[2] Bu esa asarni oddiy hayotiy voqealardan yuqori darajaga falsafiy umumlashma darajasiga olib chiqadi. Asarning g‘oyaviy-badiy tahlili: Birinchidan ushbu asarda inson xotirasi masalasi markaziy o‘rinni egallaydi. Muallif fikricha, inson o‘z o‘tmishini unutsa, u o‘zligini yo‘qotadi.[1] Xotira — bu nafaqat shaxsiy, balki milliy va tarixiy qadriyatdir.

Ikkinchidan, asarda “manqurtlik” tushunchasi alohida ahamiyatga ega. Manqurt — bu o‘z tarixini, ota-onasini, millatini unutgan insondir. U o‘z irodasiga ega emas, boshqalarning buyrug‘iga ko‘r-ko‘rona bo‘ysunadi.[3] Bu orqali yozuvchi jamiyatdagi eng katta ma’naviy xavfni ko‘rsatadi.

Uchinchidan, asarda ilm-fan va texnika taraqqiyoti masalasi ham ko‘tariladi. Kosmik syujet orqali insoniyatning yutuqlari ko‘rsatiladi, lekin shu bilan birga bu taraqqiyot insoniylikdan ustun bo‘lib ketmasligi kerakligi ta’kidlanadi.[2]

To‘rtinchidan, asarda milliy qadriyatlar va an’analar masalasi ham muhim o‘rin tutadi. Edigeyning do‘stini qadimiy qabristonga dafn qilishga intilishi — bu ajdodlarga hurmat, an’anaga sodiqlik ramzidir.[4]

Obrazlar tizimi va ularning badiiy ahamiyati:Romandagi obrazlar tizimi juda puxta ishlangan bo‘lib, har bir qahramon muayyan g‘oyani ifodalaydi.[5]

Edigey – asarning bosh qahramoni. U oddiy inson bo‘lsa-da, unda katta ma’naviy kuch mujassam. U sadoqatli do‘st, vijdonli inson va milliy qadriyatlarni hurmat qiluvchi shaxs sifatida gavdalanadi. Edigey obrazi orqali muallif ideal inson timsolini yaratadi.[1]

Kazangap – hayotiy tajribaga ega, dono inson. Uning o‘limi orqali hayotning o‘tkinchiligi, inson umrining qisqaligi haqida falsafiy fikrlar ilgari suriladi.[3]

Nayman ona – asarning eng fojeali va ta’sirchan obrazlaridan biri. U o‘z o‘g‘lini manqurtlikdan qutqarishga urinadi, ammo muvaffaqiyatsizlikka uchraydi.[1] Bu orqali ona mehri, insoniylik va xotiraning ahamiyati yanada kuchli ochib beriladi.

Manqurt obrazi esa umumlashma obraz bo‘lib, u o‘zligini yo‘qotgan insonlarning timsolidir. Bu obraz bugungi jamiyat uchun ham dolzarb hisoblanadi.

Asarning zamonaviy ahamiyati:Bugungi globallashuv davrida Chingiz Aytmatov ning ushbu asari yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi kunda ko‘plab yoshlar o‘z milliy ildizlaridan uzoqlashib borayotgan bir paytda, bu asar ularni o‘z tarixini unutmaslikka chaqiradi.

Asarda ko‘tarilgan muammolar — ma’naviyatsizlik, o‘zlikni yo‘qotish, texnologiyaga haddan tashqari berilish — bugungi jamiyatda ham mavjud. Shu sababli bu asar nafaqat badiiy, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega.

Xulosa. Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” romani insoniyat uchun muhim bo‘lgan ma’naviy, falsafiy va ijtimoiy masalalarni chuqur yoritib bergan asardir. Asarda inson xotirasi, milliy qadriyatlar va o‘zlikni anglash g‘oyalari markaziy o‘rin egallaydi.Yozuvchi “manqurtlik” tushunchasi orqali o‘z tarixini unutgan insonning qanday fojeaga duch kelishini ta’sirli tarzda ko‘rsatadi. Bu esa o‘quvchini o‘z ildizlariga sodiq qolishga, ajdodlar merosini qadrlashga undaydi.

Shuningdek, asarda ilm-fan taraqqiyoti bilan birga insoniylikni saqlab qolish zarurligi ta’kidlanadi. Chunki texnologik rivojlanish inson ma’naviyatidan ustun bo‘lib ketmasligi lozim.

Demak, ushbu roman nafaqat badiiy asar, balki insoniyat uchun muhim saboq beruvchi, chuqur ma’noga ega falsafiy asardir. Chingiz Aytmatov bu asari orqali har bir insonni o‘zligini anglashga, tarixini unutmaslikka va ma’naviy qadriyatlarni asrab-avaylashga chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chingiz Aytmatov. Asrga tatigulik kun. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 1989.
2. Chingiz Aytmatov. И дольше века длится день. – Moskva: Sovetskiy pisatel, 1980.
3. Karimov N. XX asr adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005.
4. Qosimov B. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2010.Yo‘ldoshev Q.
5. Badiiy asar tahlili asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012.